

## **“1148” ishonch telefoni to‘g‘risida statistik MA’LUMOT**

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “Davlat xizmatlarini rivojlantirish markazi” davlat muassasasida (keyingi o‘rinlarda - Markaz) “1148” ishonch telefoni (keyingi o‘rinlarda – Ishonch telefoni) faoliyat yuritib kelmoqda. Ishonch telefoni orqali davlat xizmatlari ko‘rsatilishi bo‘yicha jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushadigan qo‘ng‘iroqlar qabul qilinib, ular yuzasidan huquqiy maslahat va axborotlar berib borilmoqda.

Markazda Ishonch telefoni orqali kelib tushgan qo‘ng‘iroqlarga 10 nafar mas‘ul xodimlar tomonidan dushanba–juma kunlari (bayram kunlaridan tashqari) soat 9:00 dan, soat 13:00 gacha va soat 14:00 dan, soat 18:00 gacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida axborot berib borilmoqda, shuningdek, aholi va tadbirkorlik subyektlarini tunu-kun axborot bilan ta‘minlash maqsadida, Ishonch telefoni orqali kelib tushgan qo‘ng‘iroqlar sinov tariqasida mas‘ul xodimlar tomonidan tungi vaqtlarda ham qabul qilinmoqda.

Natijada, o‘tgan oktabr oyi mobaynida Ishonch telefoni orqali jismoniy va yuridik shaxslardan jami **9 495 ta** qo‘ng‘iroqlar qabul qilingan bo‘lib, ular huquqiy maslahat va axborotlar bilan ta‘minlandi.

Eng ko‘p qo‘ng‘iroqlar:

tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatdan hamda qayta ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha (**2 535 ta**);

elektron raqamli imzo kaliti olish yuzasidan (**991 ta**);

litsenziyalash va ruxsatnomalar olishga doir (**820 ta**);

kadastr sohasida (**634 ta**) bo‘lib, ular asosan Toshkent shahri, Toshkent, Samarqand va Farg‘ona viloyatlaridan kelib tushgan.

Shuningdek, qo‘ng‘iroqlar doimiy ravishda tahlil qilinib, mavjud kamchilik va muammolarni bartaraf etish haqida 10 dan ortiq normativ hujjatlarga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida takliflar kiritildi. 18 ta chora-tadbir belgilab olinib, davlat xizmatlari ko‘rsatilishini rivojlantirish yuzasidan tadbirlar amalga oshirilmoqda.